



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA  
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

**KONFERENSIYA**

**MATERIALLARI  
TO'PLAMI**

**TOSHKENT - 2026-YIL**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR  
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI  
materiallar to'plami**

**Toshkent shahri-2026**

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:  
Abdurazakova K.Y.  
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:  
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

### **Annotatsiya**

*Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.*

### **Аннотация**

*Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).*

### **Annotation**

*This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.*

4. Миллий гоя: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2011.-Б.163.
5. Ҳомидов Ҳ. Қирқ беш аллома ҳикояти.-Т.: Фан. 1995.-Б.28.
6. Imom Buxoriy. Sahih hadis. T. 2. O'zbekiston, 2006.-С.128.
7. WWW.Ziyo.net.
8. <https://yuz.uz/news/mehr-insonparvarlik-operatsiyalariozbekiston-tajribasi-dunyo-boylab-yoyishga-loyiq>

## FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

**Mamatqobilov Tursunmurod**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosiy fanlar kafedrasida dotsenti,  
siyosiy fanlar nomzodi*

**Ergasheva Ra'no**

*2-son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi  
Gigiyena va laboratoriya kafedrasida o'qituvchisi;*

**Saydirasulova Dildora**

*Samarqand davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Doi:** 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/FMBW8183

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali aholining ijtimoiy-siyosiy, psixologik, kommunikativ va ma'naviy saviyasini, imkoniyatlari hamda sog'lom turmush tarzini ta'minlanish hamda falokatlarini oldini olish omillariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** *Yangi O'zbekiston, ijtimoiy-siyosiy hayot, texnogen vaziyat, kommunikativ, psixologik omil, yoshlar, ma'naviyat va ma'rifat, vahimani yumshatish masalalari.*

**Annotation:** The article focuses on further modernizing our country and introducing innovative technologies to improve the socio-political, psychological and spiritual level, opportunities, and a healthy lifestyle, and on factors for preventing disasters.

**Keywords:** *New Uzbekistan, socio-political life, technogenic situation, psychological factor, youth, spirituality and enlightenment, panic mitigation issues.*

Mahalliy aholi bilan psixologik ishlarni amalga oshirishda ularning ruhiyatini, ichki kechinmalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan: tabiat ofatlari, yirik falokatlar va urush iskanjasi insonlarda katta emotsional asabiylanishni yuzaga keltiradi, yuqori ahloqiy-psixologik qat'iylikni, chidamlilikni va jabr ko'rganlarga psixologik yordam ko'rsatishga, vayron bo'layotgan moddiy boyliklarni saqlab qolishga tayyorlikni talab qiladi.

“Ekstremal vaziyatlarda ruhiy zo'riqishga tushib qolgan insonlarga psixologik yordam ko'rsatishda juda muhim bir holatga e'tibor berish lozim: haqiqiy ofat, favqulodda vaziyatning ta'siri tugagandan so'ng, sodir etilgan voqealarni anglab olish jarayonida boshlanadi. Aynan shu paytda jabrlanuvchilar ruhiy yordamga juda muhtoj bo'ladilar” [Шейнов, 2010: 73].

Bunda asosiy masala jabrlangan shaxslarning ruhiy holatini o'rganish zarur:

Ruhiy holat deyilganda, ruhiy faoliyatning ma'lum davrdagi to'liq xarakteristikasi tushuniladi. Hozirgi davrda ruhiy holatlarning tasniflanishiga bo'lgan bir necha yondashuv mavjud.

N.D.Levitov ruhiy jarayonlar (bilish, emotsional va irodaviy turlar) uchun qabul qilingan tasnifni ruhiy holatga tarqatadi. Boshqa holatda quyidagi xarakterologik alomatlar qo'llanilgan: fikrlarning bir yerga jamlanganligi – fikrlarning tarqoqligi (parishonxotirlik); dadillik, qat'iylik – ikkilanish, jur'atsizlik; quvnoqlik – xomush (g'amgin)lik va boshqalar. Holat alomatlari bo'yicha tasniflar bor: shaxsga xos – vaziyatga xos; ancha chuqur – yuzaki; davomli – qisqa muddatli; ko'proq anglangan – kamroq anglangan va boshqalar.

Mahalliy aholi psixologik holatini me'yorlashtirish uchun ruhiy holatlarni quyidagi parametrlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- suv toshqinidan aziyat chekkan yurtdoshlarimizning hayot faoliyatini yaxshilash uchun salbiy ta'sir ko'rsatib turgan holatlarni aniqlash;
- ruhiy tushkunlikka tushgan, vahima va sarasimaga tushgan mahalliy aholilarning barqaror ruhiy holatni ta'minlash uchun yuzaga kelgan diskomfort holatlarni qanchalik kuchli yoki kuchsizligini, davriyligini aniqlash;

- jabrlangan mahalliy aholining ommaviy tarzdagi komformistik holatlarini yuzaga kelishini oldini olish maqsadida individual tarzda ruhiy holatni psixologik treninglar, suhbatlar va koorektsiyalovchi mashqlar (psixosomatika) orqali bartaraf etishga kirishish zarur.

So'zsiz, bu parametrlar u yoki bu darajadagi yuz bergan ruhiy buzilishlarni qanchalik davomiylikda paydo bo'lganligiga, shaxsning tipologik xususiyatlariga va unga ta'sir qilib turgan sotsium muhitiga ham bog'liq bo'ladi. Ruhiy buzilishlarga olib keluvchi ekstrojen vaziyatlar ko'p vaziyatni to'la anglamaslik, kuchli salbiy ta'sirlar (baqiriqlar, tartibsiz harakatlar, salbiy axborotlar) oqibatida kelib chiqadi.

“Har qanday jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuch insondir. Shuning uchun ham psixologik kurash inson ongini boshqarish orqali rivojlangan jamiyat poydevorini mustahkamlab boradi” [Pardayev, 2015: 173].

Ekstremal sharoitlar – bu inson o'zini yaxshi his qilib, yaxshi ishlaydigan holat tashqarisida yotuvchi sharoitlardir. Hayot va kasbiy faoliyatning optimal sharoitlari zo'riqish talab qilmaydi va kechirilgan yuklamalardan keyin organizmning ishlash zahiralarini tez tiklashga yordam beradi. Bu inson evolyutsiyasi (takomillashuvi, rivojlanishi) jarayonida moslashgan sharoit.

Quyidagi vaziyatlar ekstremal hisoblanadi:

xavf-xatar, qiyinchilik, yangilik, bajariladigan faoliyatning yuqori mas'uliyatliligi, qaror qabul qilishga vaqt miqdorining cheklanganligi bilan bog'liq turli emotsional ta'sirlar va boshqalar;

ommaviy zararlanish, himoyasizlik hissi, hayot uchun bevosita xavfning mavjudligi bilan kuzatiluvchi vaziyatlar;

psixik va psixomotor jarayonlarga haddan tashqari yuklamalar berish;

ayniqsa, axborot yetishmaganida, nutq funktsiyalariga haddan ziyod yuklama berish;

haddan ziyod jismoniy yuklamalar, kuchlarning zo'riqishi;

vestibulyar yuklamalar sezilarli tezlashuvining ta'siri;

harakat faolligi pasayishining yaqqol ifodasi rejimi (gipokineziya va gipodinamiya);

barometrik bosimning keskin o'zgarib turishi;

yaqqol giperventilyatsiya, ya'ni chuqur nafas olishning 2,5 – 3 minutdan ortiq vaqtga tezlashishi. Masalan, kuchli emotsional zo'riqish va bunda uglekislotalar miqdorining alveolyar havoda keskin kamayishi va boshqa tomondan – qondagi uglekislota miqdorining sezilarli ortishi (giperkapniya);

gipoksiya – organizm to'qimalarida kislorod miqdorining sezilarli pasayishi;

nafas olinayotgan havoda turli zarar yetkazuvchi elementlarning mavjudligi;

tebranish, shovqin, radiochastotalarning salbiy ta'siri;

turli iqlimiy va mikro iqlim omillarining (issiq, sovuq, namlik va boshqalar) salbiy ta'siri;

ochlik va tashnalik;

sensorli deprivatsiya va axborotdan ajralib qolish;

ruhiy zo'riqish kumulyatsiyasi (dori yoki zaharli moddalarning organizmda to'planib kuchli ta'sir qilishi), xavotirlilik;

yaqinlar baxtsizliklarini, ularning halok bo'lishini boshdan kechirish.

Hayot faoliyatining ekstremal sharoitlari sifatida, shuningdek, tashqi ekstremal ta'sirlar yoki chuqur kechinmalar natijasida rivojlangan organizmning turli patologik holatlari, yaqqol ifodalangan funktsional va ruhiy holatlarni ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Ekstremal sharoitlarga optimum (eng qulay sharoit) bilan bog'liq u yoki bu omilning ortishi yoki pasayishi kiradi: issiqdan ham, sovuqdan ham halok bo'lish mumkin, salbiy reaksiyalar ham jismoniy zo'riqishdan, ham gipodinamiya (jismoniy yuklamalar yetishmasligidan ham) kelib chiqadi va h.k. Ekstremal sharoitlar, ko'pincha, murakkab faoliyat va holatlarda namoyon bo'ladi, ammo ular kundalik turmushda ham yuzaga kelishi mumkin. Oilaviy notinchlik, kambag'allik, yashash sharoitining cheklanganligi, farzandlar yoki ota-ona bilan bog'liq baxtsizliklar, boshliqlarning qo'polliigi – bularning hammasi ekstremal vaziyat yuzaga kelishining sababi bo'lishi mumkin.

Tasavvur qiling: siz hayotingizning eng og'ir davrini boshdan kechiryapsiz. Ish yo'qotish, oilaviy muammo yoki uzoq davom etgan ruhiy tushkunlik kabi

muammolarga duch kelib, mutaxassisga murojaat qilsangiz faqat quloq solib emas - his qilib, tushunib, anglab qolishingiz zarur.

Aynan mana shu - haqiqiy kommunikativ mahorat. Oddiy so'zlashish emas, balki inson qalbiga yo'l topa bilish muhim hisoblanadi. Bu ko'nikma tug'ma emas - uni o'rganish, mashq qilish va rivojlantirish mumkin.

Tashqi va ichki muhitning turli omillari ta'sirida hamda vaqtdan kelib chiqib, mehnat va yashash sharoitining optimallarini ajratib, o'ziga xos tasnifini yaratish mumkin. Bunda paraekstremal (lotincha "para" – oldida, yonida), ekstremal, paraterminal va terminal (lotincha "terminus" – oxiri, yakuni) sharoitlar ahamiyat kasb etadi.

Paraekstremal (ekstremaldan oldingi, ekstremalgacha) sharoitlar operativ (tezkor) zo'riqishga olib keladigan funktsional zahiralarning sezilarli bo'lmagan safarbarligi bilan xarakterlanadi. Deyarli har doim salbiy holat sanalgan zo'riqishdan farq qilib, operativ zo'riqish, ma'lum sharoitlarda, mehnat qobiliyati ortishini ta'minlab beruvchi ijobiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ekstremal sharoitlarda, dastlab, mehnat qobiliyatining tushib ketishi va funktsional zahiralalar ayrim ko'rsatkichlarining pasayishi sodir bo'ladi, lekin bundan keyin u umumiy o'sish va nihoyat, taqsimlanish bilan almashadi. Inson psixologik holati uchun bu sharoitlarda diskomfort (noqulaylik) va zo'riqishga o'tib ketadigan kuchli asabiy taranglik xarakterlidir. Shu bilan birga, ekstremal sharoitlarda o'z o'rniga ega, funktsional resurslarning ifodalangan, yaqqol safarbarligi, mavjud vazifalarni muvaffaqiyatli yechishga yordam berishi ham mumkin.

Paraterminal sharoitlarda psixologik va fiziologik ko'rsatkichlar dinamikasi funktsional zahiralalar qayta taqsimlanishi to'xtashi va ularning yaqqol umumiy tushib ketishi boshlanishi bilan xarakterlanadi. Organizmning zahiralari qolmaydi, umumiy asteniya (G.Sel'ye atamalarida "tamoman ishdan chiqish") boshlanadi, yaqqol namoyon bo'ladigan asteno-depressiv holat rivojlanadi va agar ekstremal omillar (stresslar) ta'siri to'xtamasa, terminal sharoitlarga o'tish ehtimoli bor. Mehnat va yashashning terminal sharoitlariga o'tish, keyinchalik ekstremal omillarning ta'sirida, o'lim bilan tugashga olib keladi (eslatib o'tamizki, "terminus" "yakun" sifatida tarjima qilinadi).

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tabiri bilan aytadigan bo'lsak, "Xalqimiz bilan jipslikda va hamjihatlikda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tamiz" [Mirziyoyev, 2020: 1-4], kabi ruhiy dalda va psixologik qo'llab-quvvatlashni oldiga maqsad qilib qo'yish har bir inson uchun muhim sanaladi.

Ta'kidlash joizki, yashash va faoliyat sharoitining mazkur tasnifi (klassifikatsiyasi) nisbiydir. Ko'p narsa ekstremal ta'sirlarning ko'lami va davomiyligiga, shuningdek, aniq insonning ularga moslashuvi jihatiga bog'liq. Shu bilan birga ta'kidlash zarurki, aholini ko'pincha, favqulodda vaziyatlar va halokatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarda yordamga jalb qiladilar. Faoliyatning mazkur turi, shubhasiz, ekstremal hisoblanadi. Bunda texnogen va tabiiy ofatlarga nisbatan alohida tasnif mavjudligini bildiradi. Vahima va sarosimaga tushgan mahalliy aholilar bilan profiliktik ishlarni amalga oshirish jarayonida Ekstremal vaziyatlarni va uning inson ruhiyatiga ta'sirini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib bu vaziyatda mutaxassislariga ehtiyoj seziladi. Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, inson hamisha favqulodda vaziyatlarga u yoki bu darajada o'zini tayyorlab borsa maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шейнов В.П. "Тайное давление". Минск. "ЛГодъни", 2010. – С.274.
2. Pardayev R. "Psixologik kurash". T.: "Turon zamin ziyo", 2015.- B.256.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Vatanparvar" gazetasi, 2020-yil, 4-sentabr. –B.8.

## **YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI**

**Islamova Dildora Xamidullayevna**

"Falsafa va milliy g'oya" kafedrası dotsenti,  
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti,  
Tel:+998998478669

**Abdusattorov Aliakbar Baxtiyor o'g'li**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
EAMF 3 – bosqich talabasi

**Doi:** 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/KESL9439

## MUNDARIJA.

| <b>T\ r</b>                                       | <b>Mavzusi</b>                                                                                                                                                   | <b>beti</b> |
|---------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| <b>I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN</b> |                                                                                                                                                                  |             |
| 1.                                                | <b>Sirojiddinov Sh.S.</b> KIRISH SO'ZI.                                                                                                                          | 4           |
| 2.                                                | <b>Jamolidinova O.R.</b> TABRIK SO'ZI.                                                                                                                           | 6           |
| 3.                                                | <b>Yunusov K.A.</b> GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV                                                   | 8           |
| 4.                                                | <b>Kushayev U.R.</b> QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI                                                                         | 13          |
| 5.                                                | <b>Sultonova N.E.</b> SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.                                                                                           | 19          |
| 6.                                                | <b>Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D.</b> FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI | 23          |
| 7.                                                | <b>Islamova D.X., Abdusattorov A.B.</b> YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI                                              | 28          |
| 8.                                                | <b>Islamova D.X.</b> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI                        | 32          |
| 9.                                                | <b>G'ulamov O.G'.</b> YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI                                                                        | 37          |
| 10.                                               | <b>Ibrogimova G.</b> MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.                                                                | 42          |
| 11.                                               | <b>Ahadov SH.</b> CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN                                                                                                          | 47          |

|                                                                             |                                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                             | CENTRAL ASIA.                                                                                                                                     |     |
| 12.                                                                         | <b>Jumaqulova N., Arolova Z.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI                          | 56  |
| 13.                                                                         | <b>Mirsoliyeva N.</b> GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI                                                                       | 61  |
| 14.                                                                         | <b>Ibragimov B.I.</b> TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI | 65  |
| 15.                                                                         | <b>Shirnova Y.T., Isakulova S.E.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA              | 71  |
| 16.                                                                         | <b>Mirsoliyeva N.</b> YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI                                      | 75  |
| 17.                                                                         | <b>Karimov F.</b> O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI                                          | 79  |
| <b>II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI</b> |                                                                                                                                                   |     |
| 18.                                                                         | <b>Omonov B.</b> YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR                                                                      | 85  |
| 19.                                                                         | <b>Kuchkarov V.</b> PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY                                          | 93  |
| 20.                                                                         | <b>Nazarov N.</b> YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI                                                       | 101 |
| 21.                                                                         | <b>Abdurazakova K.</b> IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.                                                     | 107 |
| 22.                                                                         | <b>Nazarova D., Boymirzayev O.O.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN                                            | 113 |

|     |                                                                                                                              |     |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|     | HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI                                                                                                   |     |
| 23. | <b>Kudratova U.</b> TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI                                                                   | 119 |
| 24. | <b>Jiyanmuratova G.</b> YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR                               | 123 |
| 25. | <b>Ma'mirova O.</b> DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI   | 128 |
| 26. | <b>Salayev F.</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI | 135 |
| 27. | <b>Ibragmov J.</b> MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR                                                                        | 138 |
| 28. | <b>Ergashev K., Shaymardonova G.</b> KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT                                                    | 145 |
| 29. | <b>Бозаров А.</b> НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.                                            | 151 |
| 30. | <b>Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N.</b> GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI                                              | 159 |
| 31. | <b>Mirraximov B.</b> YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI                                       | 163 |
| 32. | <b>Ergashev K.E.</b> O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT                                           | 168 |
| 33. | <b>Shirzad R.</b> YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).   | 176 |
| 34. | <b>Gong Yi Feng.</b> THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS     | 189 |
| 35. | <b>SHI FENGKAI.</b> CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN                          | 197 |

|                                                                                                    |                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                                                    | COOPERATION.                                                                                                                                 |     |
| 36.                                                                                                | <b>Rakhimov M.</b> YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN  | 201 |
| <b>III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI</b> |                                                                                                                                              |     |
| 37.                                                                                                | <b>Qahramon R.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI                                                    | 207 |
| 38.                                                                                                | <b>Isakov B.N.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. | 220 |
| 39.                                                                                                | <b>Jurakulov J.</b> YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.                                   | 224 |
| 40.                                                                                                | <b>Yarkulov A.</b> YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.                                                  | 232 |
| 41.                                                                                                | <b>Abdusalomova S.</b> MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.   | 241 |
| 42.                                                                                                | <b>Abdusalomova S.</b> GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.                      | 248 |
| 43.                                                                                                | <b>Mirzoyeva F., Boboxonov Sh.</b> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.       | 252 |
| 44.                                                                                                | <b>Muminov B.</b> MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.                                                        | 259 |
| 45.                                                                                                | <b>Mirzoyeva F.</b> O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.                                                                  | 268 |
| 46.                                                                                                | <b>Qurbonova M.</b> MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:                                                                                        | 273 |

|                                                                                  |                                                                                                                                             |     |
|----------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                                  | MUVOZANAT MASALASI.                                                                                                                         |     |
| 47.                                                                              | <b>Mirzoyeva F., Rashidi O.</b> BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).       | 278 |
| 48.                                                                              | <b>Abdurazakova K., Rustamova A.</b><br>RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.                                      | 282 |
| 49.                                                                              | <b>Jo'raqulov J.</b> SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.                                                                         | 291 |
| 50.                                                                              | <b>Xurromova S.</b> IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.                                                      | 300 |
| 51.                                                                              | <b>Razzakova N., Axunova D.</b><br>IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI. | 304 |
| <b>IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI</b> |                                                                                                                                             |     |
| 52.                                                                              | <b>Alimboyeva R.</b> YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.                           | 314 |
| 53.                                                                              | <b>Alimboyeva R.</b> BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.                                              | 319 |
| 54.                                                                              | <b>Alimboyeva R., Xolbekova Sh.</b> YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.                                                       | 324 |
| 55.                                                                              | <b>Xaitmetov F., Nuzilloeva G.</b> MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.                | 330 |
| 56.                                                                              | <b>Alimboyeva R., Majidova O.</b> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.       | 336 |

|     |                                                                                                                                   |     |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 57. | <b>Alimboyeva R., Norkobilova SH.</b><br>JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI<br>TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI. | 342 |
| 58. | <b>Sobirova D.</b> ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA<br>INSON QADRI                                                               | 349 |

**To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.**

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

